O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

JO‘RAQULOVA NASIBA SHAMUROVNA

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA ER VA ERAN OBRAZI (XI-XV ASRLAR)

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti
(filologiya fanlari)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UO‘K: 821.512.133.091

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Jo‘raqulova Nasiba Shamurovna
O‘zbek mumtoz adabiyotida er va eran obrazi
(XI-XV asrlar) 3

Jurakulova Nasiba Shamurovna
Image of er and eran in Uzbek classical literature (XI-XV centuries) 26

Журакулова Насиба Шамуровна
Образы эр и эран в узбекской классической литературе (XI-XV века) 50

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 55

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

JO‘RAQULOVA NASIBA SHAMUROVNA

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA ER VA ERAN OBRAZI (XI-XV ASRLAR)

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti
(filologiya fanlari)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2434 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) veb-sahifaning www.tai.uz hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Asadov Maqsud Husenovich,** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Jabborov Nurboy Abdulhakimovich,** filologiya fanlari doktori, professor
	Qobilov Usmon Uralovich, filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:100060, Toshkent, Shahrisabz tor ko‘chasi, 5. Tel.: (99871) 233-36-50; fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Ziyolilar ko‘chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ da tarqatildi
(2024-yil “___” _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.To‘xliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., prof.

R.Barakayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filol.f.n., prof.

U.Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., prof.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy obraz takomilini har bir millatning axloqiy-ma’naviy qarashlari, tafakkur tarzi, e’tiqodi va qadriyatlari bilan uyg‘unlikda yoritib berish muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda, muayyan badiiy obrazning o‘ziga xos tabiati, milliy mansubligini ochib berish hamda taraqqiyot tamoyillarini belgilash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy obraz, ramz yoki timsollarning asar mazmun-mohiyatini ochib berishdagi vazifasi diqqatni jalb qilib kelgan. Obraz xarakteri muallif dunyoqarashi bilan uyg‘unlikda adabiy matndan anglashilgan maqsad-muddaoni oson tushunishga, qolaversa, estetik zavq uyg‘otishga imkon beruvchi adabiy hodisadir. Insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam qilgan obrazlarning mohiyati, badiiy tasvir imkoniyatlarini yoritish zamonaviy adabiyotshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

O‘zbek mumtoz adabiyotining o‘ziga xos obrazlari bo‘lgan er va eranning genezisi, taraqqiyot bosqichlari va badiiy o‘ziga xosligini monografik aspektda tekshirish nafaqat obraz tabiati, adabiy matn mazmunini anglashda, balki turkiy qavmlarning ma’naviy-axloqiy darajasi hamda tafakkur tarzini bilishga ham imkon yaratadi. Er, eran asl turkiy so‘zlar bo‘lib, mard, jasur, saxiy, himmatli va rostgo‘y odam, mumtoz adabiyotda esa komil inson, yetuk shaxs kabi qator ma’nolarni bildiradi. Er va eran obrazlarining takomil tarixi, mumtoz adabiyotda tutgan o‘rni va boshqa ko‘pgina jihatlarni o‘rganish turkiy xalqlar o‘tmishi, ma’naviy qadriyatlaridan xabardor bo‘lish, millat axloqiy qiyofasini yorqin tasavvur etish uchun ham nihoyat darajada muhimdir. Zero, “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish, bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega”[1]. Shu ma’noda, o‘zbek mumtoz adabiyotida er va eran obrazining mohiyati, yuzaga kelishi, rivoji, ifoda usuli va tasvir ko‘lamini ilmiy jihatdan atroflicha yoritib berish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 19-oktyabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-son “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng

[1] Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. www.xabar.uz. 07.08.2018.

nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Er va eran obrazi o‘zbek mumtoz adabiyotining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, poetik so‘z san’atining o‘ziga xos imkoniyatlarini ochib berishda alohida ahamiyatga ega bo‘lsa-da, obraz sifatidagi mavqeyi, shoir badiiy mahorati, ma’naviy olamini kashf etishdagi o‘ziga xos xususiyatlari hozirga qadar o‘zbek adabiyotshunosligida maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Jahon adabiyotshunosligida er va eran obrazining istilohiy ma’nosi hamda qadimgi turkiy adabiyotda qo‘llanish xususiyatlari V.Radlov, M.Seyidov, A.Inan, B.O‘gel, E.Pekarskiy, E.Sevortyan tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, F.Kupruli, S.Uludog‘, A.Jabajio‘g‘li, M.Qutqu, M.Jo‘shon, U.Turar, A.Go‘zal, I.Qora[2] tadqiqotlarida irfoniy mohiyati xususida bahs yuritilgan.

O‘zbek tilshunoslari A.Rustamov, G‘.Abdurahmonov, H.Dadaboyev, F.Abdujabbarova, M.Xolmuradovalar[3]ning tadqiqotlarida er va eran so‘zining lug‘aviy ma’nosi, etimologiyasi hamda tarkibiy tuzilishi xususida ayrim ma’lumotlar mavjud.

Er, eran obrazining xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi o‘rni va ahamiyati xususida T.Mirzayev, A.Musaqulov, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov[4] kabi

---

[2] Радлов В. Опыт словаря тюркских наречий. Том I. – СПб.: Наука, 1893. – 1916 с.; Пекарский Э. Словарь якутского языка. Том 1 (А-К). –М., 1959. – 1282 с.; Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков (Общетюркские и межтюркские основы на гласные). – М.: Наука, 1974. – 767 с.; Köprülü A. Türk edebiyatı’nda ilk mutasavvıflar. 3. Basım. – Ankara: Türk tarih kurumu basımevi, 1976. – 470 s.; İnan A. Eski türk dini tarihi. – İstanbul: Milli eğitim basımevi, 1976. – 280 s.; Сеҗидов М. Азэрбајчан мифик тэфэккурунун гајнаглары. – Бакы: Јазычы, 1983. – 326 s.; Uludağ S. Tasavvuf terımlerı sözlügü. – İstanbul: Marifet yayınları, 1995. – 604 s.; Cebecioğlu E. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. – Ankara: Rahber yayınları, 1997. – 741 s.; Ögel B. Türk kültür tarihine giriş VI. Turklerde tuğ ve bayrak. – Ankara, 2000. – 486 s.; Жўъшон М. Юнус Эмро ва тасаввуф. – Тошкент: Фан, 2001. – 144 б.; Güzel A. Hoca Ahmed Yesevi Fakr-name. – Ankara, 2017. – 472 s.; шу муаллиф. Dını tasavvufı türk edebiyatı el kitabı. 9. Baskı: Ankara, 2021. – 1044 s.

[3] Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 164 б.; Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 247 б.; Абдужаббарова Ф. “Қутадғу билиг”даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика. Филол.фан.номз....дисс. –Тошкент, 2011. – 162 б.; Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит турк”да эркак жинсини ифодаловчи лексемалар. Лингвист V: илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Академнашр, 2014. – 264 б.; Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол.фан.б-ча.фалсафа д-ри (PhD)...дисс. –Тошкент, 2019. – 141 б.

[4] Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари – Тошкент: Фан, 1968. – 168 б.; Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – 308 б.; Турдимов Ш. “Гўрўғли” достонларининг генезиси ва

folklorshunoslar u yoki bu munosabat bilan to‘xtalib o‘tishgan. Obrazning qadimgi turkiy adabiyotdagi asosiy xususiyatlari va qo‘llanish shakllari haqida esa B.To‘xliyev, N.Rahmonov va A.Abdurahmonovlar[5] ma’lum ma’noda xulosalarini bayon qilishgan.

N.Komilov, I.Haqqul, A.Go‘zal, N.Jabborov, M.Asadov, S.Sayfulloh, E.Ochilov, B.Rajabova, G.Xo‘janova, Z.Rahmonova, H.Latipov, R.Saidova[6] kabi adabiyotshunoslarning maqola va monografiyalarida esa obrazning ramziy-majoziy tabiati, irfoniy ma’no qamrovi xususida ayrim fikrlar mavjud. Ular orasida professor I.Haqqulning tadqiqotlari, xususan, Alisher Navoiy lirikasida er va eran obrazining mavqeyi haqida xarakterli ma’lumotlar berilgani bilan diqqatga sazovordir.

Er va eran obrazining zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi talqini borasida S.Meliyev, U.Hamdamov[7] singari adabiyotshunoslar ham bir qadar mulohaza yuritishgan.

Dissertatsiyani yozishda o‘zbek va chet el adabiyotshunoslarining tadqiqotlariga tayanildi va zaruriyat darajasida ulardan foydalanildi.

Mazkur tadqiqot er va eran obrazining mohiyati, qadimiy ildizlari, taraqqiyot bosqichlari, xususan, o‘zbek adabiyotida XI-XV asrlardagi o‘ziga xos xususiyatlari birinchi marta monografik jihatdan o‘rganilgani bilan o‘zidan avval amalga oshirilgan ishlardan farq qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari, jumladan, “To‘rt jildlik “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”ni nashr etish” (2021-2023-yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

тадрижий босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011. – 240 б.; Эшонқулов Ж. Миф ва бадиий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2019. – 172 б.

[5] Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Тошкент: Баёз, 2004. – 115 б.; Раҳмонов Н. Турк хоқонлиги. – Тошкент, 1993. – 144 б.; шу муаллиф., Содиқов Қ. Ўзбек тили тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2009. – 224 б.; Абдураҳмонов А. Туркий адабиётнинг қадимги даври. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 285 б.

[6] Комилов Н. Тасаввуф ёхуд комил инсон ахлоқи. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 272 б.; Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – 184 б.; шу муаллиф. Ирфон ва идрок. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 160 б.; шу муаллиф. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2021. – 288 б.; шу муаллиф. Касби камол ўзни танишдир. – Тошкент: Ёшлар матбуоти, 2021. – 272 б.; шу муаллиф. Навоийга қайтиш (4-китоб). – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2020. – 240 б.; Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Тошкент: Фан, 1995. – 160 б.; Очилов Э (И.Ҳаққул билан ҳаммуаллифликда). Ишқ ва ҳайрат олами. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 304 б.; шу муаллиф. Навоий ғазалларида комил инсон тимсоллари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001. №1. – Б.7-14; Ражабова Б. Ўзум сори боқма, сўзум сори боқ. – Тошкент: Турон-замин зиё, 2015. – 84 б.; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Тошкент: Тафаккур, 2020. – 352 б.; Раҳмонова З. Ишқ, ирфон ва иршод. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2021. – 264 б.; Латипов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиётида маърифат талқини ва ориф образи (XIII-XV асрлар). Филол. фан. б-ча. фалсафа д-ри (PhD)...дисс. – Тошкент, 2020. – 141 б.; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Адабиёт, 2021. – 254 б.; Саидова Р. Ўзбек мумтоз адабиётида маломатийлик ғояси ва талқинлари (XI-XVI асрлар). Филол. фан. б-ча. фалсафа д-ри (PhD)...дисс. – Тошкент, 2022. – 142 б.

[7] Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи (монография ва мақолалар). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – 200 б.; Милиев С. Глобал илмий-бадиий талқин поэтикаси. Филол.фан.д-ри (DSc)...дисс. – Тошкент, 2020. – 226 б.

Tadqiqotning maqsadi XI – XV asr o‘zbek mumtoz adabiyotida qo‘llangan er va eran obrazining shakllanishi, tarixiy takomili va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

er va eran obrazining turkiy xalqlar ijtimoiy hayot tarzi, e’tiqod va qadriyatlari bilan bog‘liq jihatlarini aniqlash hamda o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘ziga xos mavqeyini belgilash;

er, eran istilohining mazmun-mohiyati, so‘zning obrazga aylanish jarayonining muhim tamoyillarini dalillash;

er, eran obrazining irfoniy adabiyotda komil inson, yetuk shaxs ma’nolarini ifodalashga asos bo‘lgan hayotiy xususiyatlarini ochib berish;

Navoiygacha bo‘lgan davr o‘zbek adabiyotida er, eran obrazining ma’no ko‘lami va badiiy vazifasini aniqlash;

Navoiy ijodida er, eran obrazining badiiy ifoda tarzi, adabiy matn mazmunini yuzaga chiqarishdagi muhim ahamiyatini dalillash hamda shoir asarlaridagi erlik yo‘li talablarini tahlil va talqin etish;

o‘zbek mumtoz adabiyotida er va eran maslagi hamda ma’naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi o‘ziga xos tamoyillarni asoslab berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida qadimgi yozma yodgorliklar, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarlari, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy hikmatlari, Sayfi Saroyi, Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Sayyid Qosimiy, Haydar Xorazmiy va Alisher Navoiy asarlari olindi.

Tadqiqotning predmetini qadimgi turkiy adabiyot hamda XI-XV asrda o‘zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan asarlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, sistemali yondashuv, tarixiy-qiyosiy, germenevtik tahlil usullaridan foydalanildi.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

er, eran obrazining turkiy, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan hayotiylik, aniqlik, tabiiylik kabi ijtimoiy, yo‘lboshchilik, xalqchillik, erksevarlik, yurtparvarlik singari ma’naviy o‘rni yoritilib, xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, qo‘shiq, maqol, dostonlar va ilk yozma yodgorliklar, “Avesto”, “Devoni lug‘otit turk”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Qisasi Rabg‘uziy” asarlari bilan aloqador tarixiy ildizlari va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari aniqlangan;

er va eran so‘zlarining adabiy matn tarkibidagi badiiy obrazga aylanish tamoyillari, xususan, turkiy xalqlarning kattalarga hurmat ko‘rsatish, kichiklarga shafqatli bo‘lish, ulug‘ insonlarning suhbatiga intilish, ota-onaga mehribonlik qilish kabi turmush madaniyati hamda qat’iyatlilik, cho‘rtkesarlik, birso‘zlilik, va’daga sodiqlik singari axloqiy qiyofasi bilan bog‘liq jihatlari isbotlangan;

irfoniy adabiyotda soqiy, rind, orif, murshid, oshiq kabi kamolot darajalari va qahramonlarning hol maqomini belgilashda er va eranlik fazilatlarining alohida mavqe egallagani asoslanib, obrazning jo‘mard, to‘g‘riso‘z, tanti, odil, jasur, saxiy

singari xarakter xususiyatlari hamda obrazlilik, tasviriylik, assosiativlik kabi badiiy ifoda imkoniyatlari ochib berilgan;

er va eran obrazining adabiy matn mohiyatini yuzaga chiqarishdagi ahamiyati, jumladan, ijodkor uslubi, badiiy mahorati va adabiy an'analardan foydalana olish iqtidori bilan bog'liq jihatlari asoslanib, o'zbek mumtoz adabiyotidagi eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

er, eran istilohining mazmun-mohiyati, er va eran obrazining badiiy adabiyotda o'rinlashishi hamda komil inson timsoliga aylanishi tizimli tarzda yoritilgan.

er, eran obrazining takomil tarixi, ma'no qamrovi va badiiyatini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek adabiyotshunosligi tarixi, adabiyot nazariyasi kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo'llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

er, eran obrazining adabiyotdagi tasvir va talqini bugungi kun o'quvchisining dunyoqarashi, shaxsiyatini shakllantirishda hamda jamiyatning axloqiy-ma'rifiy qadriyatlarini yana-da yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotining shakllanishi, madaniyatining rivoj topishida muhim rol o'ynagan adabiy manbalarning qiyosiy-tipologik tahlil usuli asosida ilmiy tadqiq qilingani, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslangani, nazariy fikr-xulosalar tarixiy-qiyosiy tadqiq usuli asosida chiqarilgani, ishonchli manbalar hamda lug'atlardan foydalanilgani, nazariy qarashlarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan nazariy xulosalar nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotshunosligida er va eran obrazi, uning poetik xususiyatlari, mazmun-mohiyati yuzasidan mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi va to'ldiradi. Er, eran obrazining genezisi, tarixiy takomili, badiiyatining tadqiq etilishi, natijalarning mumtoz adabiyot bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qilishi, ko'plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi, tadqiqot natijalari o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek adabiyotshunosligi tarixi hamda adabiyot nazariyasi fanlarining rivojiga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ushbu dissertatsiya ishi materiallaridan ta'limning turli bosqichlarida, xususan, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs yoki seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, umumiy o'rta ta'lim hamda ixtisoslashtirilgan maktablarda o'qitiladigan adabiyot darslarida, shuningdek, mavzuga oid darslik, qo'llanma va risolalar yaratishda material bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “O‘zbek mumtoz adabiyotida er va eran obrazi (XI-XV asrlar)” mavzusi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

er, eran obrazining turkiy, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan hayotiylik, aniqlik, tabiiylik kabi ijtimoiy, yo‘lboshchilik, xalqchillik, erksevarlik, yurtparvarlik singari ma’naviy o‘rni yoritilib, xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, qo‘shiq, maqol, dostonlar va ilk yozma yodgorliklar, “Avesto”, “Devoni lug‘otit turk”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Qisasi Rabg‘uziy” asarlari bilan aloqador tarixiy ildizlari va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari aniqlangani haqidagi ilmiy xulosalardan O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida amalga oshirilgan OT-F1-77 raqamli “O‘zbek adabiyoti durdonalari 100 jildligini nashrga tayyorlash” (2017-2020) fundamental ilmiy loyihasini bajarishda mushtarak va o‘ziga xos jihatlarni ilmiy baholashda foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2023-yil 7-apreldagi 3/1255-728-son ma’lumotnomasi). “Lirik ifoda va tasvirdagi o‘ziga xoslik” (“Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari (68)” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari, 2023-yil 8-fevral), “Lison ut-tayr”da er va eran obrazi” (O‘zbek tili va adabiyoti, 2023-yil, 1-son), “Ahmad Yugnakiy ijodida er va eran obrazi” (Adabiy axborot, 2023-yil 4-son) singari maqolalardagi ma’lumotlar loyihaning mazmunan boyitilishiga xizmat qilgan.

er va eran so‘zlarining adabiy matn tarkibidagi badiiy obrazga aylanish tamoyillari, xususan, turkiy xalqlarning kattalarga hurmat ko‘rsatish, kichiklarga shafqatli bo‘lish, ulug‘ insonlarning suhbatiga intilish, ota-onaga mehribonlik qilish kabi turmush madaniyati hamda qat’iyatlilik, cho‘rtkesarlik, birso‘zlilik, va’daga sodiqlik singari axloqiy qiyofasi bilan bog‘liq jihatlari isbotlanganiga oid yangiliklaridan Ozarbayjon Respublikasining O‘zbekiston Respublikasidagi elchixonasi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazida 2022-2023-yillarda bajarilgan O‘A-22-23 raqamli “O‘zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari” mavzusidagi fundamental loyiha ishini bajarishda foydalanilgan (Ozarbayjon Respublikasining O‘zbekiston Respublikasidagi elchixonasi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazining 2022-yil 25-avgustdagi 30 Uzb son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalar “Xalq dostonlarida er obrazining badiiy talqini” (“Madaniyatlararo muloqotda sharq tillarining ahamiyati” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2020-yil noyabr), “Xalq og‘zaki ijodiyotida er va eran obrazining ma’naviy-badiiy xususiyatlari” (O‘zA elektron jurnali, 2021-yil fevral), “Qutadg‘u bilig” asarida er va eran obrazi takomili hamda komillik talqini” (Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2021-yil, 9-son) mavzularidagi ilmiy maqolalarning asosini tashkil etgan.

irfoniy adabiyotda soqiy, rind, orif, murshid, oshiq kabi kamolot darajalari va qahramonlarning hol maqomini belgilashda er va eranlik fazilatlarining alohida mavqe egallagani asoslanib, obrazning jo‘mard, to‘g‘riso‘z, tanti, odil, jasur, saxiy singari xarakter xususiyatlari hamda obrazlilik, tasviriylik, assosiativlik kabi badiiy ifoda imkoniyatlari ochib berilgan hamda er va eran obrazining adabiy matn mohiyatini yuzaga chiqarishdagi ahamiyati, jumladan, ijodkor uslubi, badiiy mahorati va adabiy an’analardan foydalana olish iqtidori bilan bog‘liq jihatlari asoslanib, o‘zbek mumtoz adabiyotidagi eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha

bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari dalillangani xususidagi tahlillardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy tanqid kengashi hisobot yig‘ilishlarida, yosh ijodkorlar to‘garagi, mahorat darslarida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil martdagi 01-03/789-son ma’lumotnomasi). Bu orqali yosh ijodkorlarda adabiyot nazariyasi, poetik obraz yaratish mahorati xususida bilim va ko‘nikmalar hosil qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan 150 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning ***“Er va eran obrazining tarixiy ildizlari hamda estetik asoslari”*** nomli dastlabki bobi ***“Er va eran obrazining axloqiy-ma’naviy konsepsiyasi”*** sarlavhali birinchi faslida er, eran obrazining genezisi, tarixiy takomili hamda badiiy adabiyotdagi ma’naviy martabasi tadqiq qilingan. O‘zbek mumtoz adabiyoti oshiq, rind, soqiy, g‘arib, orif, faqir, pir singari qator obrazlar tizimiga ega. Ular orasida sof turkiy tilga oid so‘z bo‘lgan er, eran faqat milliy adabiyotda qo‘llangani va boshqalariga nisbatan qadimiyligi bilan ham ajralib turadi. Er so‘zi, tarixiy manbalarda, eng avvalo, atoqli otning tarkibiy qismi sifatida keltirilgan. Arshakiylar davlati nomi Er sakdan yasalgani, avar, machar singari qabilalar atamasi er//ardan hosil bo‘lgani, Erkenja, Ertug‘rul, Ersak, Eryigit, Erali kabi ismlar asosida ham er so‘zining mavjudligi mazkur istilohning xalq turmush tarzi, madaniy hayotidagi muhim ahamiyatini ko‘rsatadi. Er so‘zi mardlik va ulug‘vorlik timsoli hisoblangan. Shuningdek, inson, kishi, rahnamo, sof, muqaddas ma’nolarida ham qo‘llangan[8]. VII-VIII asrlarda, ya’ni Ko‘k turklar sulolasi davrida turkiylar o‘zlari ishongan iloh qiyofasini yasab, uylarida saqlashgan, mana shu timsol turkiylarda, xususan, tuva, uranliklarda “eran”

[8] Сејидов М. Азарбајчан мифик тафаккурунун гајнаглары. – Бакы: Јазычы, 1983. – Б. 108.

deyilgan[9]. Ilmda er, eran so‘zlari er kishi, ertakdagi alp bahodir, jasoratli inson, jangchi, rahbar hamda kuch-g‘ayrat, mustahkamlik va mardlik ma’nolarida qo‘llangani ham aytilgan[10].

O‘zbek adabiyotida er, eran so‘zlari izohi, eng avvalo, “Devonu lug‘otit turk” asarida uchraydi. Kitobda er – erkak kishi, erlik – mardlik, erlashdi – mardlikda bahslashdi, deb sharhlangan: Olar ikki erlashdi (ular ikkisi mardlikda bahslashishdi)[11]. “Devon”dagi to‘rtliklardan er va eran obrazi sarkarda, donishmand, yo‘lboshchi, himmatli inson ma’nolarini bildirgani anglashiladi. Jumladan:

Bardi eran qonuq ko‘rup, qutqa saqar,
Qaldi yavuz oyuq ko‘rup, ewni yiqar.

Ma’nosi: Mehmonni davlat va baraka, deb biladigan (eran)lar o‘lib ketdi, sahrolarda ko‘ringan qoralarni va manzillarni belgilash uchun qo‘yilgan toshlarni ko‘rib, odam deb o‘ylab, u kelib qo‘nmasin, deb chodirini buzuvchilargina qoldi[12].

Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, eran – er kishilar, ammo bu tarzda ko‘plik hosil qilinishi turkiy til qoidasiga muvofiq kelmaydi. Ya’ni –on qo‘shimchasi faqat fors-tojik tilida ko‘plik ma’nosini beradi. Eran so‘zidagi –an qo‘shimchasi haqida turkolog olimlar orasida boshqa faraz ham mavjud. Ular mazkur qo‘shimcha sof turkiy ekanligi haqida bahs qilishadi. Xususan, G‘.Abdurahmonov va A.Rustamovlar –an, –en qo‘shimchasi yetuklikni bildirishini ta’kidlashadi. Adabiyotshunos N.Rahmonov esa –n qo‘shimchasi yozma yodgorliklarda otlarning ko‘plik yasovchi vositasi bo‘lib kelgani haqida yozadi va misol tariqasida eran so‘zini keltiradi[13]. Umuman olganda, ikki xil qarash ham ma’lum bir asosga ega. Eran so‘zining fors tilidagi mardon istilohiga mazmunan yaqinligi, shu bilan birgalikda, qadimgi turkiy namunalarda ham qo‘llanishi fikrimizni dalillaydi. Eran obrazining badiiy adabiyotdagi maqomiga diqqat qaratilsa, M.Koshg‘ariy bildirgan xulosa haqiqatga yaqindek ko‘rinadi. Shunisi muhimki, so‘zlarning boshqa tildan kirib kelgan vositalar yordamida qo‘shimcha ma’no hosil qilishi odatiy hodisa bo‘lib, bu holat so‘zning lisoniy mansubligiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Demak, eran – sof turkiy so‘z bo‘lib, er kishilar ma’nosini anglatadi.

Irfoniy adabiyotda er va eran nomining ma’nan pok zotlarga berilishi, shubhasiz, islomiy e’tiqod bilan bog‘liq. Alloh taolo muborak kalomida *“Sizlarni bir jon (Odam)dan yaratgan va undan jufti (Havvo)ni vujudga keltirgan hamda ikkisidan ko‘p erkak va ayollarni taratgan Rabbingizdan qo‘rqingiz [Niso: 4/1]”*,

---

[9] İnan A. Eski türk dini tarihi. – İstanbul: Milli eğitim basımevi, 1976. – S. 59.

[10] Qarang: Радлов В. Опыт словаря тюркских наречий. Том I. – СПб.: Наука, 1893. – С. 1456; Пекарский Э. Словарь якутского языка. Том 1 (А-К). –М.: Наука, 1959 – С. 274-275; Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков (Общетюркские и межтюркские основы на гласные). – М.: Наука, 1974. – С. 767.

[11] Кошғарий М. Девону луғотит турк (I том). Нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 242.

[12] Кошғарий М. Девону луғати-т-турк (С.Муталлибов таржимаси асосида қайта ишланган нашр). Нашрга тайёрловчи Қ.Содиқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017. – Б. 154.

[13] Qarang: Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 41. Раҳмонов Н., Содиқов Қ. Ўзбек тили тарихи. Дарслик. – Тошкент: Ўзбек файласуфлари миллий жамияти, 2009. – Б.116.

deya marhamat qiladi. Parvardigor eng avval erni yaratdi va unga O‘z ruhidan jon ato etdi: *“Bas, qachonki, uni rostlab, unga ruhimdan puflaganimdan so‘ng, unga sajda qilgan holingizda yiqilingiz! [Sod: 38/72]”*. Badiiy adabiyotda erlar kamolot ramzi sanalishi va har bir tirik jonning yaralish mohiyatini anglash yo‘lidagi riyozat-mujohadasiga erlik yo‘li deyilishi mana shu mazmun bilan aloqador. Hadisi sharifda erlarning ulug‘ligi quyidagicha e’tirof qilingan: *“Anda Rasulullоh aytdilar: “Maxluqqa sajda qilmoq durust emasdur, balki maxluqlar o‘z Xoliqiga sajda qilurlar. Agar maxluqqa sajda qilmoq ravo bo‘lur edi, xotinlar o‘z erlariga sajda qilur edilar”*[14]. “Tarixi Muhammadiy” asarida mazkur hadis izohi shunday keltiriladi: *“Erlarning haqlari xotinlari ustida naqadar ulug‘ligi bu hadisdan ma’lum bo‘lsa ham, lekin sajdaga loyiq bo‘lguvchi erlar esa xotinlarning dunyolik va oxiratlik haqlarini qoldirmay bajarib turuvchi erlardir”*[15]. Aynan “sajdaga loyiq bo‘lgan erlar” badiiy adabiyotda er obrazining mukammallashishi uchun xizmat qilgan, desak xato bo‘lmaydi.

Ma’lumki, futuvvat malomatiylik maslagining asosidir. Malomatiylarning to‘g‘rilikka xilof ish qilmasligi, manmanlikdan butunlay yiroqligi, biror jonzotga ozor yetkazmasligi futuvvat axloqining go‘zal ifodasidir. Shu sababli ilmda malomat va futuvvat ahli er deb ulug‘langan: “Futuvvatda muruvvat, ya’ni erlik va odamiylik doimo barobar qadrlangan. Javonmardlar nazarida, malomat ahli aynan erdir, yigitdir va butun insondir”[16].

Mazkur faslda er, eranning tariqatdagi martabasini tushunish, ma’naviy darajasi haqida xulosa berish uchun ularning nafs tarbiyasidagi maqomlari ham tadqiq etildi. Erlar nafsi roziya, nafsi marziya maqomiga ko‘tarilgan valiy, orif zotlar bo‘lib, ixlos, zikrulloh, zuhd va karomat sohibidirlar:

Eran qamug‘ bordilar, manzilig‘a yettilar,
Savol-javob berdilar, uchar tamug‘ norlari.
Shariat ul bilgusi, tariqat ul ulgusi,
Haqiqat ul qulg‘usi, tun-kun tutash yorlari[17].

E’tiborlisi, er, eran mumtoz adabiyotda payg‘ambarlarni ham tamsil etib keladi:

Ismoilning aslindin, bir er qo‘bor naslindin,
Olam to‘lg‘ay nurindin, haq Muhammad erdiyo[18].

Dissertatsiyada *alp, mard, jo‘mard, botir, sher, shunqor, bek, bekzod, pir, mardon, mardoni g‘oyib, mardi maydon, mardi mard, mardi roh, yo‘lbars, ajdaho, nor, yigit, ersig, ahli ma’ni, ahli nazar, ahli dil va xo‘blar* singari insoniy kamolot timsollari ham er, eran obrazi bilan adabiy matnda o‘zaro ma’nodoshlik hosil qilishi yorqin misollar bilan asoslangan.

[14] Соғуний А. Тарихи Муҳаммадий. – Тошкент: Мунир, 2021. – Б. 554.
[15] Ko‘rsatilgan kitob. – Б. 554.
[16] Gölpınarlı A. Melamilik ve Melamiler. – İstanbul: İstanbul Devlet Matbaası, 1931. – S. 172.
[17] Сулаймон Боқирғоний. Ҳикматлар куллиёти. Нашрга тайёрловчилар И.Ҳаққул, Э.Очилов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 346-347.
[18] Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби. Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи И.Ҳаққул, С.Сайфуллоҳ. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – Б. 41.

Er, eranlik sifatlari so‘fiy ayollarga ham nisbat berilgan. Jumladan, “Tazkirat ul-avliyo”da shunday deyiladi: “Agar so‘ralsaki: – Nechun Robi’ani eranlar qatorida zikr qilding? – deb, javob bergaymizkim: – Payg‘ambar (s.a.v.) marhamat etar: “Ayol – Alloh yo‘lida erdir!”[19]. Shunday mazmundagi bir qancha hadislar ham mavjud. Jumladan: “*Erkaklar ichida juda ko‘pchilik komil bo‘ldilar. Ammo ayollardan faqat fir’avnning xotini Osiyo, Maryam binti Imron komil bo‘ldi. Oishaning dunyo ayollaridan afzalligi saridning boshqa taomlardan afzalligi kabidir”*[20]. Badiiy adabiyotda ham toat-ibodatda qat’iy bo‘lgan, yolg‘iz Yaratganga tavakkul qilib, Alloh ishqi bilan yongan ayollar er deb e’zozlanadi.

So‘fiy shoir Yunus Emro erlarni ulug‘lab, “Shayx-u donishmand-u valiy, jumlasi birdir, er yo‘li”[21] deya, turkiy adabiyotdagi mazkur obraz mohiyatini qisqa va aniq ifoda etadi. Darhaqiqat, mumtoz merosda bu qadar ixlos va mehr-muhabbat bilan e’zozlangan obrazlar juda kam. Professor Ibrohim Haqqul so‘zi bilan aytganda: “...turkiy yozma va og‘zaki adabiyotdan er, eran, alp eran, g‘ayb eran obrazlari chetga surilsa, uning nafaqat milliy-tarbiyaviy, balki umuminsoniy mohiyati ham kuchsizlanib, hatto mahdudlashib qoladi. Ular tilga olinganda, mumtoz she’riyatdan mardlik, matonat, hikmat, jasorat kabi boqiy haqiqatlar yorishib, yolqinlashib kelganday tuyuladi”[22]. Shuningdek, badiiy adabiyotda ruh ozodligiga erishgan, komillik xislatlarini o‘zida mujassam etgan insonlar er, eran deb ulug‘langan.

Bobning ***“Er va eran obrazining tarixiy ildizlari”*** deb nomlangan ikkinchi faslida turkiy adabiyotda er, eran obrazining yuzaga kelishi va shakllanishi o‘rganildi. Er, eran nomlarining obraz sifatida shakllanishi, badiiy adabiyotda mustahkam mavqega ega bo‘lishida xalq dostonlari, qo‘shiqlar hamda maqollarning ahamiyati beqiyos. Xalq dostonlarida, jumladan, o‘zbek xalqining qahramonlik eposi sanalgan “Alpomish”da ilohiy iqtidor sohiblari, Alloh taologa suyukli bo‘lgan xos bandalar er, jamoa ma’nosida kelganda esa eran deyilgan.

Er, eran obrazi boshqa turkiy elatlar ijodiy merosida ham madadkor avliyo, ilohiy homiyni bildiradi. “Kitobi Dada Qo‘rqut”da er deb atalgan Qo‘rqut otaning farzand talabidagi kishilarni duosi bilan xushnud qilib, Allohning karami bilan tug‘ilgan o‘g‘lonlarga ism qo‘yuvchi sifatida gavdalanishi fikrimizni quvvatlaydi. “Go‘ro‘g‘li” dostonining turkman versiyasida eranlar deganda Xizr (a.s.), Qambar ota va Hazrati Ali nazarda tutilgan, er nomi esa Xizr (a.s.)ga nisbat berilgan[23].

Xalq og‘zaki ijodida g‘ayb eran va alp eran obrazlari mavjud. Alp eranlar qahramon jangchi bo‘lsa, g‘ayb eranlar ko‘rinmas avliyolar, Allohning do‘stlaridir. G‘ayb eranlar Allohdan boshqani bilmaydilar, faqat Uning yodi bilan band bo‘ladilar[24]. Dostonlarda botir qahramonlarning hayot tarzi alp eranlik yo‘li sanaladi. G‘ayb eranlar esa alplarning himoyachisi va murabbiydir. Er obrazi

[19] Фаридиддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997. – Б. 145.
[20] Тантовий Муҳаммад Саййид. Пайғамбарлар тарихи (Қуръони Карим қиссалари). Зиёвуддин Раҳим таржимаси. –Тошкент: Шарқ НМАК, 2021. – Б. 433.
[21] Юнус Эмро. Нечун йиғларсен, эй булбул? Жамол Камол таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018. – Б.163.
[22] Ҳаққул И. Навоий ижодида эр ва эран образи // Ўзбек тили ва адабиёти. 2019. № 1. – Б. 3-10.
[23] Турдимов Ш. “Гўрўғли” достонларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 40.
[24] Cebecioğlu E. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. – Ankara: Rahber yayınları, 1997. – S. 212.

adolat bilan yurt boshqaruvchi, el-u yurtning farovon va obod yashashini ta’minlovchi odil hukmdor qiyofasida ham gavdalantirilgan:

Ota yurtim Yodgor qo‘zim tebratar,
G‘anim bo‘lgan dushmanlarni bo‘zlatar,
Otasi Er edi, Erday bo‘p o‘tar,
Otasining yurtin shunday bo‘p tutar.[25]

Ma’lumki, Go‘ro‘g‘li ham xalq tasavvurida hech yengilmas bahodir, dono va oqil yo‘lboshchi qiyofasida yashab kelgan obraz. Shu sababli xalq termalarida, ko‘pincha, uning quyidagi faxriyasi keltiriladi:

El qidirdim, hadsiz yurdim,
Elni to‘g‘ri yo‘lga burdim.
Er Go‘ro‘g‘li atangan so‘ng,
Ko‘p qo‘shinni tanho urdim[26].

Folklor namunalarida er, eranlarning ma’naviy-ma’rifiy siyrati bilan bir qatorda tashqi ko‘rinishi, shakl-shamoyili ham muayyan tasvirga ega. Ersari “Yusufday husnli, jamolli, xushsurat, pahlavonkelbat” deya tavsiflansa, Go‘ro‘g‘li “go‘zal bo‘z bola”, “jaynagan jamoli mis gul-lola” deb e’tirof qilinadi. Hasanxon esa: “...devsifat, bir ajdahoday, hech narsani ko‘ziga iladigan emas, balki nazariga keltirmay, pisand qiladigan ham emas, shunday haybatli, siyosatli”[27]dir. Demak, xalq og‘zaki ijodi namunalarida er, eranning surati-yu siyrati mukammal tasvirlangan bo‘lib, ular axloqi yetuklik namunasi o‘laroq ko‘rsatilgan.

Turkiylarning afsonaviy qahramoniga aylangan Alp Er To‘ngaga er so‘zining qo‘shib aytilishi kuchli shaxsiyat sohiblariga turkiylarda shunday nisbat berilishining ifodasidir. Alp so‘zi “Devonu lug‘otit turk”da botir, qahramon deya sharhlanadi. To‘nga esa: “...yo‘lbars jinsidan bo‘lgan hayvon, filning kushandasi”[28], deb izohlanadi. Demak, ulug‘ hukmdorga mard, botir, yo‘lbars ma’nolarini anglatuvchi uch turkiy so‘zning sharafli nom qilib berilishi Alp Er To‘nganing mavqeyini ko‘rsatib beradi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida esa xalq qahramoni shunday ta’riflanadi: “…nazar solib qarasang, turk beklari, turk beklarining eng yaxshilari, ular orasida nomi mashhuri va baxti kulib boqqani To‘nga Alp Er nomli bek edi. Mushohadasi keng, san’at-hunari behisob ko‘p, bilimli, zakovatli, sara odam o‘sha edi. Tojiklar uni Afrosiyob deb ataydilar, u talay ellarni tasarrufiga olgan edi”[29]. Alp Er To‘nga vafotidan keyin xalq o‘z g‘am-qayg‘usini marsiya ko‘rinishida quyidagicha ifoda etgan:

Alp Er To‘nga o‘ldimu?
Esiz, ajun qaldimu?
O‘zlak o‘chin aldimu?

---

[25] Алпомиш. II қисм. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Ёзиб олувчи М.Зарифов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б. 47.
[26] Булбул тароналари. 5-том. Достонлар ва термалар. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Зариф. – Тошкент: Фан, 1973. –Б. 134.
[27] Ravshan. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o‘g‘li. Yozib oluvchilar Muhammadisa Ernazar o‘g‘li, Hodi Zarif. – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 340.
[28] Кошғарий М. Девону луғати-т-турк. Нашрга тайёрловчи Қ.Содиқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017. – Б. 448.
[29] Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 103.

Emdi yurak yirtilur[30].

O‘rxun-Enasoy bitigtoshlarida ham er, eran so‘zlari uchraydi. Ayniqsa, “Kul tigin” bitigtoshida Kul tiginning mardonavor harakatlari er nomini olgani bilan izohlangan: *“Umay tag ogim qatun qutinga inim Kul tigin Ar at bo‘lti”*[31]. “Er otim” birikmasi qadimgi turkiy adabiyotda faol qo‘llangan bo‘lib, voyaga yetgan, kuch-quvvatga to‘lgan yigitlarga nisbat berilgan. Ilk yozma yodgorliklarda eran, asosan, erlar ma’nosida kelsa-da, Oltinko‘l yodnomasida 38 yoshda vafot etgan jasur lashkarboshi Eran Ulug‘ deb atalgani ravshan bo‘ldi. Umuman olganda, qadimgi turkiy adabiyotda er, eran dushman qarshisida bosh egmaydigan, or-nomusini sotmaydigan, ilm-ma’rifatli, zakiy insonlar timsoli bo‘lib keladi.

“Er va eran obrazi: tasvir va talqin mahorati” nomli ikkinchi bobning “***XI-XII asrlar adabiyotida er va eran obrazining badiiy ifoda imkoniyatlari”*** deb nomlangan birinchi faslida “Qutadg‘u bilig” va “Hibat ul-haqoyiq” asarlari misolida er, eran obrazining badiiy qimmati ko‘rsatib berilgan. “Qutadg‘u bilig” asarida er – yetuk shaxs, jamiyat rivojida eng muhim o‘rin tutgan zukko mansabdorni gavdalantirgan. Dostonda “erende eri” (eranlarning eri) sifatida ulug‘langan Oyto‘ldining *“otim qul, o‘zim xizmatkor, o‘rnim eshik oldi”* deyishi – chinakam erning iqrori. Chunki inson Yaratganga qul, bu foniy dunyoda yaxshilik qilishga bel bog‘lagan xizmatkor, qachon bu zaminni tark etishini bilmaydigan, doimo eshik oldida hushyor turishi lozim bo‘lgan hojibdir.

Er obrazining mohiyatini tushunishda, ayniqsa, O‘zg‘urmish va O‘gdulmish o‘rtasida bo‘lib o‘tgan anjuman hamda uzlat haqidagi suhbatlar muhim ahamiyatga ega. Yusuf Xos Hojibga ko‘ra, er kishi el-yurtga manfaatli, odil siyosatli bo‘lishi kerak. Bunday xayrli ishni tashlab, uzlatga chekinish Haq yo‘lidagi toat-ibodat sanalmaydi:

Bayat qullaringa tosul ey bogu,
Kishiki tosulur erig er tegu.

Mazmuni: Xudoning bandalariga foyda keltir, ey dono. Kishilarga foyda keltiradigan erni er deyish kerak[32].

“Hibat ul-haqoyiq” asari ma’no, obraz, ramz, timsol jihatidan “Qutadg‘u bilig” pandnomasiga juda yaqin. Er, eran obrazi tadqiqida ham bunga guvoh bo‘lish mumkin. Adib Ahmad ilm-u zakovatli, himmatli, saxiy, kamgap va rostgo‘y insonlarni er deb sharaflaydi:

Butun qilg‘i fe’lin o‘ta irtagil,
Karam kimda bo‘lsa, ani er tegil[33].

Er – qalb ko‘zi uyg‘oq, sohibma’rifat, oliyhimmat zot. Asarda eran obrazi ham yaxshi insonlar ma’nosini anglatib, faol qo‘llangan:

Eran hayri sharri kuzaf kechmas ul,

---

[30] Алп Эр Тўнга ёки Афросиёб жангномаси. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи А.Абдураҳмонов. Масъул муҳаррир Н.Раҳмонов ва Н.Қобул. – Тошкент: Чўлпон, 1995. – Б. 29.

[31] Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-жилд. Тузувчилар Н.Раҳмонов, Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 54.

[32] Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 594.

[33] Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул-ҳақойиқ. Нашрга тайёрловчи Қ.Маҳмудов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – Б. 73.

Esiz o‘dgu ishga yonut bo‘lmas ul.

Ma’nosi: Yaxshilar (eranlar) qo‘lidan yomonlik kelmaydi, yomon kishi esa yaxshilik qaytarish uchun javob topa olmaydi[34].

Dissertatsiyada *nazarkarda er, buyuk er, atoqli er, ulug‘ er, biliklik er, axi er, axi edgu er, ko‘ki ko‘rkluk er, koni er, tugal er, ersig er, oqil eran*, *oshiq eran*, *chin eran, g‘oyib-hozir eran*, *fayzosor eran*, *maydon erani* singari birikmalar badiiy matnlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida ayon bo‘ldiki, shijoatli, jasur ma’nolarini bildiruvchi *ersig* so‘zi aslida *er+sig*dan yasalgan. Erat (sarkarda, lashkarboshi), erdash (birodar, hamroh) so‘zlarining asosi ham er bo‘lib, ular keyinchalik arxaiklashgan[35]. “Qutadg‘u bilig” dostoni qahramonlari nutqida eran, ersig erim, ersig to‘nga undalmalari ko‘p uchraydi va mard, mard bahodir ma’nolarida keladi[36].

Bobning ***“XIII-XIV asr o‘zbek mumtoz adabiyotida er va eran timsolining tadriji”*** nomli ikkinchi faslida er, eranning sof irfoniy obrazga aylangani, dunyoni idora etadigan ma’naviy tirgaklar shu nom bilan atalgani xususida bahs yuritilgan. Xususan, Ahmad Yassaviy hikmatlarida er – ilohiy ishq sohibi sifatida talqin qilingan. Ishqning davosiz dard ekani, jondan kechmay, hoy-u havasni tark etmay, bu yo‘lga kirmoq imkonsizligini eranning pandidan bilib olish mumkin:

Hojat ermas ishq dardig‘a davo so‘rmak,
Eran oytib ketgan ermish davosi yo‘q.
Joning qiynab, yoshing oqib, hushing ketib,
Ishq dardidin, do‘stlar, qottig‘ balosi yo‘q[37].

Quyidagi hikmatda esa orif zotlar: shayx ul-islom Zunnun Misriy va sulton ul-orifin Boyazid Bistomiylar er, deya e’tirof qilinadi:

Zunnun Misriy o‘z shahridan chiqib ketdi,
Shayx Boyazid yetmish yo‘li o‘zin sotti.
O‘zin bilmay vola bo‘lib, boshi qotti,
Ondog‘ erlar da’vosini qilg‘an bormi?[38]

Misralarda iqtibos san’ati orqali Qur’oni karimdagi *“Va odamlar orasida Allohning roziligini tilab, jonini sotadiganlar bor [Baqara: 2/207]”* oyatiga ishora ham mavjud.

Umuman olganda, hikmatlarda ishq bog‘ida navo qilayotgan oshiq ham, foniy dunyoda g‘arib ekanligini anglab yetgan oqil qul ham, “zarra manligi” va “kibr-u havosi yo‘q” faqir-u “tobonlari nam bo‘lmay” daryo kechadigan, nazari bilan tog‘larni kesadigan kashf-u karomat sohiblari avliyolar ham er, eran nomi bilan ulug‘langan. Aytish mumkinki, Yassaviy ijodidagi er, eran – chin mo‘mindir:

Mo‘min degon bo‘lur doim tafakkurda,
Fikrin aylab, zikrin aytur uzoq tunda,

---

[34] Ko‘rsatilgan kitob. – Б.80.

[35] Qarang: Абдужаббарова Ф. “Қутадғу билиг”даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика. Филол. фан. номз....дисс. (10.02.02) – Тошкент: 2011; Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. б-ча. фал. д-ри (PhD).дисс. (10.00.05). – Тошкент: 2019.

[36] Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Тошкент: Баёз, 2014. – Б. 98.

[37] Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Тошкент: Наврўз, 2018. – Б. 63.

[38] Ko‘rsatilgan kitob. – Б. 314.

Bo‘lmas manlik bir zarraye vujudinda,
Ondog‘ erni etogini tutmasmusan?[39]

XIV - XV asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan turkigo‘y shoirlar ijodida er, eran obrazi u qadar ko‘p ko‘zga tashlanavermaydi. Xususan, Sayyid Ahmad, Xorazmiy, Sakkokiy, Yaqiniy singari shoirlar ijodida er, eran timsolini uchratmaymiz. Alisher Navoiy ehtirom bilan tilga olgan Lutfiy, Atoiy, Gadoiy va Hofiz Xorazmiy lirikasida ham er so‘zining ulushi anchayin kam. Buni turkiy yozma adabiyotga fors-tojik va arab she’riyatining ta’siri, er, eran so‘zlariga nisbatan unga ma’nodosh bo‘lgan orif, rind, murshid, xo‘blar kabi obrazlarning ko‘proq istifoda etilgani bilan ham izohlash mumkin. Ammo mazkur davr adabiyotida er, eran obrazi o‘ziga xos badiiy ifodalarga ega bo‘ldi. Xususan, Atoiy *“erlar dami”* birikmasidan foydalanib, ularning ma’naviy qudratini ifoda etadi:

Raqibingni juvonmarg aylasun Haq,
Havola qilmisham erlar damina[40].

Lutfiy ijodida esa er vasl istab, dunyo molini tark qilgan oshiqdir:

Lutfiy, yuz oltuni bila vasl istama, faqir,
Kim oqcha yuzni er kishi quchmaski, zar quchar[41].

Yusuf Amiriyning “Chog‘ir va Bang” munozarasida eran rindning ma’nodoshi sifatida tasvirlansa, Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” asarida er *“sohibdavlat”, “komil bilikli”, “sohibvaqt”, “porso”, “faqir”, “aziz”, “orif”* epitetlari bilan ham ifodalangan. Sayfi Saroyiga ko‘ra, chin erlik nafsini tarbiya qilmoq va havoyi istaklarga qarshi jang eta bilmoqdir:

Nafsin o‘lturgon er bo‘lur g‘oziy,
Er ersang hosil et aning bekin ot[42].

Sayyid Qosimiy va Haydar Xorazmiy ijodida esa er va eran obrazi keng mavqe egallaydi. Xususan, Sayyid Qosimiyning “Haqiqatnoma” asarida eranlarga maxsus bag‘ishlov keltirilgan:

Eranlar mazhari nuri Xudodir,
Qachon bir lahza yodidin judodir.
Erurlar ikki olam podshohi,
Qilurlar sayr az moh to ba mohiy.
Muhiti faqt ichinda Nuh erurlar,
Farishta suvratinda ruh erurlar[43].

Kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, XIV-XV asrning birinchi yarmi o‘zbek mumtoz adabiyotida er, eran obrazi komillik saodatiga yetgan zotlarni tamsil qilgan. Er, eranning irfoniy iqtidori xalq hayotini ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun sarflanishi alohida e’tiborga olingan.

---

[39] Ko‘rsatilgan kitob. – Б. 300.
[40] Атойи. Девони Шайхзода Атойи. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат ва изоҳлар муаллифи С.Сайфуллоҳ. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 209.
[41] Лутфий. Девон. Нашрга тайёрловчи С.Эркинов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. – Б. 54.
[42] Уч булбул гулшани. Тўплам. Таҳрир ҳайъати А.Қаюмов ва б. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986. – Б. 297.
[43] Ўзбек адабиёти бўстони. Муборак мактублар. Нашрга тайёрловчилар М.Абдувоҳидова ва б. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – Б. 171.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi ***"Alisher Navoiy ijodida er va eran obrazining poetik takomili"*** deya nomlanadi. Uning ***"Lirik ifoda va tasvirdagi o'ziga xoslik"*** faslida mutafakkir shoir Alisher Navoiy she'riyatidagi er, eran obrazining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilindi. Ma'lumki, ulug' shoir ijodiy merosida komil inson orzusi, yetuklik tomon bormoq shartlari eng asosiy masala hisoblanadi. Mutafakkir shoir nazarida odam nomiga loyiq bo'lmoq va tug'ilish mohiyatini to'liq anglamoq chin insonlikdir. Navoiy asarlarida ana shunday axloqiy kamolot sohiblari er, eran deb ham ataladi. "Nazm ul-javohir" asarida nafsoniy istaklar qorin deya sifatlanib, erning bu a'zo bilan aslo chiqisha olmasligi ta'kidlanadi:

Har kimgaki ko'p taom yemak fandur,
Bilgilki, najosatqa tani maskandur.
Qorning bila do'st bo'lmasang ahsandur,
*Nevchunki, **er o'g'lig'a** qorin dushmandur*[44].

Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning *"Inson farzandi to'ldirgan eng yomon qop bu qorindir"*[45] hadislari ko'p ziyon-zahmatning asosi me'yordan ortiq ovqatlanib, nafsga erk berishdan boshlanishiga ishoradir. Mumtoz she'riyatda dunyoning malomat qilinishiga asl sabab ham borliqqa hirs qo'yish, undagi noz-u ne'matlarga qul bo'lish bilan bog'liq. Dunyo – aysh-ishrat, o'yin-kulgu maskani emas, sinov, imtihon joyi. Erning dunyo istaklari va moddiyatga qulligi uning zavoliga xizmat qiladi. Shu sababli Navoiy lirikasida erning dunyoga bog'liqligi keskin qoralanadi:

*Ey Navoiy, **er esang** dunyo arusin qil taloq,*
Bir yo'li bo'lma zabun bu zoli makkor ollida[46].

Er, eran – tariqat vakili. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniyga ko'ra, "Tariqat ishi tasbeh tutib, jundan eski libos kiyib, namoz o'qish bilangina bo'lmaydi, tariqat – xalqning xizmatidan boshqa narsa emas"[47]. Erning xalqdan keladigan har qanday jabr-u sitamga toqat qilib, eliga naf keltirishda davom etishi quyidagicha yoritilgan:

Avomdin, demakim, o'zni qutqaray, er esang,
O'zungdin o'zni qutulmoqqa jahd qilg'il xos[48].

Navoiy ijodida *"er"* va *"mard"* so'zlari ma'nodoshlik hosil qiladi. Erning ziddi nomard, narmoda, muxannasdir. Shu sababli er xo'rozga, nomard esa makiyonga o'xshatiladi. Ba'zi o'rinlarda nomard makiyondan ham past bir nobakor kimsa o'laroq gavdalantiriladi. Navoiy erlikni ulug' martaba sifatida ko'rsatib, kitobxon ong-u shuurida er bo'la olmaslik fojiaviy qismat, haqoratli umr, degan mushohadaga yo'l ochadi, er yigitlar hamiyatiga tegadigan sifatlashlarni keltirish orqali er, eran obrazini yanada hayotiylashtiradi. Bunday o'xshatishlar, asosan, qit'alar va "Lison ut-tayr" dostonida ko'zga tashlanadi.

---

[44] Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 44.
[45] Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2000. – Б. 78.
[46] Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 47.
[47] Жўзжоний А. Тасаввуф ва инсон. – Тошкент: Адолат, 2001. – Б. 13.
[48] Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 292.

Umuman, mutafakkir shoir lirikasida er, eran ilm-u irfon sohiblari hamda orif zotlarni tamsil etadi. Chin insonga xos bo‘lgan qanday fazilat bo‘lmasin, er tabiatida ularning barchasi mujassamlashtiriladi.

Bobning ***“Navoiyning epik asarlarida er va eran obrazining badiiy vazifalari”*** deb nomlangan ikkinchi fasli ikki qismga ajratilgan bo‘lib, avvalo, ***“Dostonlarda er va eran obrazi”***ga e’tibor qaratilgan. O‘rganishlardan ma’lum bo‘ldiki, “Hayrat ul-abror” dostonining 16-maqolati erlar va nomard kimsalarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. Ulug‘ shoir zohirbin, yolg‘onchi, maqtanchoq, takabbur, zolim, “badmast” hamda e’tiqodsiz kishilarni nomard deb ataydi. Chin erni esa shariat qoidalarini to‘liq ado etgan, nafs-u havoni yengib, Alloh roziligi uchun jahd qilgan, Tangri qadariga rozi bo‘lib, har ne sinov kelsa, taslimiyat ko‘rsatadigan zot deb ko‘rsatadi. Maqolatda er lochin hamda xo‘rozga, nomard esa quzg‘un va “kurk makiyon”ga o‘xshatilgan. Maqolat so‘ngida keltirilgan Abdulloh Muborak (q.t.s.) haqidagi hikoyat esa chinakam erlik fazilatlarini yoritishda muhim badiiy vazifa bajargan. Erlik axloqiy tamoyillarining go‘zal ifodasi “Farhod va Shirin” dostonida Farhod obrazi orqali ham gavdalantirilgan. Farhod ilm-u zakovati, kamtarligi va samimiyati, yoshligidanoq xalq dardiga sherikligi bilan erlik sifatlarining sohibidir. Uning er maqomida ekani Shirinning murojaatida aniq va qat’iy ifoda topgan:

Agarchi furqatimdin notavonsen,
Vale ham ersen-u ham pahlavonsen[49].

Erlik qoidalari “Lison ut-tayr” dostonidagi qushlar holati misolida jonli ko‘rsatilgan. Asarda tariqatga kirish orzusida bo‘lgan, ammo yo‘l mashaqqatidan xavotirga tushib, ortga chekinayotgan qushlarga aynan erlik maqomi ibrat qilib ko‘rsatiladi, aniqrog‘i, nafs-u havo domidan qutula olmayotgan zaif kimsalar ziddi o‘laroq baland shaxsiyat egalari er nomi bilan sharaflanadi. Tovus, Qumri, Tazarv, Shunqor, O‘rdak, Tovuqlarning Hudhudga bildirgan uzriga javoban er axloqi tavsif qilinadi.

Dostonda zaiflik, kuchsizlik va qo‘rqoqlik kabi illatlarning davosi haqiqiy ishq ekanligi aytilib, eranlarning oshiqligi bunga misol qilib keltiriladi. Masalan, oshiqlik maqomi haqidagi Shayx Abu Said Abul Xayr hikoyatida murshidning ahvol-ruhiyasi batafsil bayon qilingan. Hikoyat yakunida shayxning uqubatlari eranlarning ishqdagi holi ekani ifodalangan:

Ishq aro budur eranlarning ishi,
O‘lmayin topmas bu davlatni kishi[50].

Qolaversa, “Lison ut-tayr”dagi quyidagi misralar erning badiiy adabiyotdagi ta’rifi bo‘la oladi, desak aslo xato bo‘lmaydi:

Uldur erkim, salb etib nafsoniyat,
G‘olib etgay zotig‘a ruhoniyat.
Har kishida bu sharaf bizzot erur,

[49] Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 638.
[50] Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 140.

Ul kishi pok-u sharif avqot erur[51].

Mumtoz adabiyotda aksariyat ijodkorlar yetuklik martabasini er nomi bilan bog‘laganlar. Erlikka musallam bo‘lish qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, umrni haqiqiy erlarga xos go‘zal sifatlar bilan kechirish matmu’ amal deb tushunilgan. Alisher Navoiy dostonlarida er va eran obrazi mumtoz adabiyotdagi ana shunday an’anani davom ettirgan.

Faslning ***“Nasriy asarlarda er va eran obrazi”*** deb nomlangan ikkinchi qismida Alisher Navoiy nasridagi er va eran obrazining xarakterli jihatlariga ahamiyat qaratilgan. “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasi misolida er va eranning ta’rif-u tavsiflari keltirilib, ulug‘ avliyolar hayoti va fe’l-atvori haqidagi qarashlardan obrazga tegishli jihatlarni yoritishda foydalanilgan. “Nasoyim”da er, eran karomatgo‘y valiy, tariqat peshvosi, pir-u murshidlarni tamsil qiladi. Shuningdek, erlik martabasining tasavvufiy hayotdagi mazmun-mohiyati so‘fiylar tilidan bayon qilinadi. Dissertatsiyada Abu Hafs Haddod, Abulqosim Hakim Samarqandiy, Xoja Ahmad Hammod Saraxsiy, Abu Hamza Xurosoniyning er, eranlik bilan bog‘liq ta’riflari keltirilib, er, eran obrazining ma’naviy martabasi atroflicha tahlil qilindi. “Olam yagonasi” Abu Hafs Haddodning er haqidagi quyidagi ta’rifi erlik rioyasini aniq ifoda etgan: *“Har kim, har vaqtda af’ol va aqvol va ahvolini kitob va sunnat mezoni bila vazn qilib, rost qilmag‘ay, ul kishini er demasbiz”*[52].

Tazkirada bevosita er deb atalgan avliyolar nomi ko‘rsatilgan bo‘lib, ular orasida Bahouddin Naqshbandiy tavsifi alohida ajralib turadi. Xoja Muhammad Boboyi Samosiy Qasri Hinduvondan o‘tishda, shu tuproqdan bir er isi kelayotganini bayon qiladi: “…der emishlarki, bu tufrog‘din bir er isi keladur. To bir kunki, Sayyid Amir Kulol manzilidinki, alarning xulafosidindur, Qasri Orifon sari mutavajjih erdilar. Dedilarki, ul Er isiki bizing dimog‘imizg‘a yetar erdi, ortuqroq bo‘lubdur. Hamonoki ul Er mutavallid bo‘lubdur”[53]. Aytish mumkinki, tariqat asoschilarining er deya atalishi tasavvuf ilmida bu nomning eng yuksak maqom egalariga nisbatan qo‘llanganiga bir dalildir.

“Mahbub ul-qulub”da Alisher Navoiy ijodidagi er va eran obrazining barcha o‘ziga xosliklari jamlangan. Tadqiqotda asardagi er, eranlik ta’riflari tasniflanib, misollar yordamida asoslab berildi. Er, eran Alisher Navoiy nasrida, eng avvalo, oliyhimmat, botinnazar, sodiq zotdir. Uning sidqi so‘z, amal va holda namoyon bo‘ladi. Mana bu parchani esa er va eranlikning muxtasar ta’rifi, deb baholash mumkin: *“Eranlar hollarin suratin yoshurubturlar va malomat suratida na’li bozguna urubturlar va zohirlari binosin buzubturlar va botinlari asosin tuzubturlar. Qazodin ne kelsa o‘zlarin rizog‘a yosobturlar va olam ahlining qotig‘ ranj va irik malomatig‘i chidabdurlar. Yemak-ichmakdin kechibdurlar, Haq rizosin istarda g‘am yeb va qon ichibdurlar. Rizovu taslim zoviyasi maqomlari,*

[51] Ko‘rsatilgan kitob. – Б. 144.
[52] Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 123.
[53] Ko‘rsatilgan kitob. – Б. 302.

fano bodiyasida oromlari”[54]. Ya’ni, er, eranlar – malomatiy, fatiy va siddiqdirlar. Xullas, iymon-e’tiqodda sobit, Haq amrlariga so‘zsiz bo‘ysunuvchi, Vatan, xalq va odamlar manfaatini o‘z talab-istaklaridan ustun qo‘yuvchi, chinakam fidoyi va zahmatkash inson haqiqiy erdir.

XULOSA

1. O‘zbek mumtoz adabiyotida komil tarbiya va axloq me’yorlarini o‘zida jamlagan eng qadimiy va mukammal obrazlardan biri er va erandir. Er, eran asl turkiy lafz bo‘lib, turk so‘zining ko‘rkam, yoqimli, dadil, kamtar hamda bir so‘zli kabi ma’nolari badiiyatda er obraziga ko‘chib o‘tgan. Ba’zi turkiy qavmlarda ilohiy ruh va muqaddas ma’budlar eran nomi bilan atalgan. Bu so‘zlarning ilk izohi “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan. Asarda erlik – mardlik, erlashdi – mardlikda bahslashdi singari sharhlar berilib, er oliyjanob odam, ma’rifatli murabbiy kabi ma’nolarda talqin qilingan. Hozirgi nutqimizda faol bo‘lgan erkak so‘zi qadimda hayvonlarga nisbatan ishlatilgan va har qanday hayvon va parrandaning erkagi hisoblangan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa er va erkak ma’nodosh so‘zlar sifatida izohlangan. Lug‘atda er so‘zining mard, oliyjanob, jasur va kamtar singari ma’nolarni bildirishi yozilgan. Umuman olganda, adabiyotda nafsi bilan mujodala qilib, pok ruhga aylangan zotlar er deb atalgan.

2. Xalq og‘zaki ijodi millat o‘zligi va ko‘hna qadriyatlarini jam etgan bebaho san’atdir. Xususan, xalq dostonlarida alp botirning g‘ayrioddiy dunyoga kelishidan toki maqsadiga yetgungacha bo‘lgan voqea-hodisalar aslida erlik yo‘li hisoblanadi. Alp bahodirlar insoniyat orzu qilgan yetuk inson bo‘lib, jismonan va ma’nan balog‘atga yetgandan so‘ng er nomini oladi, eng muhimi, rahbar bo‘lib, xalqqa qaytadi. Folklorda erlar xalq koriga yaraydigan va el-yurtiga xizmat qiladigan qahramon o‘laroq namoyon bo‘lgan. Ularning eng asosiy vazifasi vatanini himoya qilish va yurtiga ega chiqishdir. Folklor namunalarida alp eran va g‘ayb eran istilohi muayyan bir vazifalarga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Alp eran – jasur va bahodir yo‘lboshchi, oshiq va jo‘mard qahramon bo‘lsa, g‘ayb eranlar unga homiy va murabbiydir. G‘ayb eran avliyolar jamoasi ma’nosida kelib, xususan, Xizr (a.s.), Hazrat Ali, Qambar ota singari valiy zotlarga ham nisbat beriladi. Folklor namunalarida er, eranlarning ma’naviy holi bilan bir qatorda tashqi ko‘rinishi, shakl-u shamoyili ham tasvirlangan. Ersarining “Yusufday husnli, xushsurat, pahlavonkelbat”, Go‘ro‘g‘lining “jaynagan jamoli mis gul-lola” deb ta’riflanishi, erlarning sherga qiyos qilinishi ularning jismoniy quvvati haqida tasavvur bera oladi. Umuman olganda, xalq qo‘rqoq, kaltabin kimsani er deb atamagan. Er, eran – el-yurtga mustahkam suyanch bo‘ladigan, jondan kechsa-da, qavmini sotmaydigan marddir. Shu bois u xalqning eng sevimli qahramoniga aylangan.

3. Er, eran obrazi eng qadimgi manbalarda mard, jasur, dono, bilimdon ma’nolarini ifodalab keladi. Misol uchun, Alp Er To‘nga jangnomasida erlar aslo mag‘lub bo‘lmasligi, ularni yengildi, deb o‘ylash xato ekani aytiladi. Alp To‘nga

[54] Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 483.

nomiga er so‘zining qo‘shib aytilishi esa uning ulug‘vorligiga ham ishoradir. Turkiylarning qadimgi hayot tarzi haqida yorqin tasavvur beruvchi “O‘g‘uznoma” dostonida sodiq lashkarboshilar er deya ulug‘langan. O‘rxun-Enasoy bitigtoshlarida esa taxtning munosib vorisi – Kul tigin er deyilgan. Bitigtoshlarda *“er atim”*, ya’ni er nomini olmoq birikmasi qo‘llanib, har jihatdan kamolga yetgan shaxsni anglatgan. Kultigin, Yaruq tiginning er nomini olishi, avvalo, onalarning, qolaversa, butun millatning baxti sifatida tilga olinadi. Bu xalq donishmandligi bilan bog‘liq bo‘lib, qadimda turkiy qavmlar odatiga ko‘ra, biror dushmanni yengib, mag‘lub qilmagunicha, yigit kishiga ism qo‘yilmagan. Shu ma’noda, “er atim” ifodasining paydo bo‘lishi chin ma’nodagi yetuklik va hurlik belgisi deb qaralgan. Qadimgi turkiy adabiyotda eran, asosan, ko‘plik ma’nosini ifodalab kelgan. Biroq Enasoy yodgorliklarida Eran Ulug‘ nomi ham mavjudki, u jasoratli qahramonning ismidir.

4. Irfoniy adabiyot namunalarida komil inson, yetuk shaxslarning er, eran deb nomlanishi Qur’oni Karimdagi oyatlar bilan bevosita bog‘liq. Hadisi sharifda sajda ravo bo‘lganida, xotinlarning o‘z erlariga sajda qilishlari haqida ma’lumot kelib, sajdaga loyiq erlar qanday bo‘lishi aytiladi. Ana shu erlar badiiy adabiyotdagi er, eran obrazining asos mohiyatini belgilab beradi. Eng ahamiyatlisi, “Qisasi Rabg‘uziy” asarida Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning er deya ulug‘lanib, xalifa Usmon (r.a.)ning ujmohlig‘ er deb ta’riflanishi obrazning diniy quvvatini ifodalaydi.

5. XI-XII asrlar adabiyotida er, eran obrazining manaviy-ma’rifiy xarakteri yorqinroq ko‘rina boshladi. Shuning barobarida, bu davrga oid adabiy manbalarda erning xalqqa xizmat qilishi, davlat boshqaruvidagi faol ishtiroki asosiy mavzuga aylandi. Xususan, “Qutadg‘u bilig” dostonida aqlli va jasur ergina odil siyosat yuritishi mumkinligiga e’tibor qaratiladi. *“Tugal er”, “koni er”, “biliglik er”, “butun er”, “chin er”, “qur alp er”, “qurch yureklig eren”* istioralari asarda alohida o‘rin egallaydi. Dostonda Oyto‘ldi erlarning eridir. Sohibma’rifat vazir otim qul, o‘zim xizmatkor, o‘rnim eshik oldi, der ekan, chin erlik mohiyatini belgilab beradi. Er Yaratganga qul, bu foniy dunyoda el-yurtiga sodiq xizmatkor, oxirat safari uchun doim hushyor turuvchi hojibdir. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida ham aql, ilm, ma’rifat, to‘g‘rilik, saxovat, karam kabi xislatlar er va eran obrazida mujassamlashgan. Muallif o‘z asarini “turkcha kitob” deb atagani bejiz emas. “Hibat ul-haqoyiq”da komil insonni tamsil etuvchi yagona obraz sof turkiy so‘z bo‘lgan er va erandir. Asarda eran istilohi ko‘plik ma’nosida emas, chin odamiylik maqomini anglatuvchi nom sifatida talqin qilingan.

6. Ma’lumki, javonmard – mard yigit ma’nosini anglatib, futuvvat yo‘li mardlik tariqi, deb ham yuritiladi. Er, eran ham istilohiy, ham badiiy jihatdan fatiy va javonmard so‘zlari bilan yaqin bo‘lib, futuvvat maslagidagilarning ahvol-ruhiyasi erlar bilan juda o‘xshash. “Qutadg‘u bilig” va “Hibat ul-haqoyiq” asarlarida *“axi er”* birikmasi, *“er ul er turur”,* deb boshlanuvchi ta’riflar javonmardlik xususiyatlarini aniq ifoda etgan.

7. Ulug‘ valiy Ahmad Yassaviy ijodida er, eran tom ma’noda irfoniy mohiyat kasb etadi. Yassaviy ijodida dunyoni idora etadigan ma’naviy tirgaklar,

ya’ni orif hamda pir-u murshidlar er, eran nomini oldi. Hikmatlarda er, eran ishqi toliblarga ibrat-namuna qilib ko‘rsatiladi. Oshiqlikning doimo bedor yashash, ma’shuqani eslashdan to‘xtamaslik, nafsdan batamom xalos bo‘lib, har qanday holatda ham sabrli bo‘lish singari belgilari er, eranga nisbat beriladi. Hikmatlarda bevosita er deb atalgan so‘fiylar Zunnun Misriy, Boyazid Bistomiy, Bishri Hofiy va Mansur Hallojlardir. Shuningdek, to‘rt xalifa va bir qator ulug‘ zotlar ta’rifida ham erlik sifatlari birma-bir sanab ko‘rsatiladi. Ahmad Yassaviy hikmatlaridagi *“eranlar nazari”, “erlar suhbati”, “er nafasi”, “er dami”* singari sifatlashlar ularning irshod martabasiga ko‘tarilganiga ishora qiladi. Hikmatlarda er so‘ziga zid ma’noda nojins, bulhavas sifatlashlari qo‘llanib, ular Haqdan qochgan nokaslar ekani aytilgan.

8. XIV-XV asr birinchi yarmida yashab, ijod etgan shoirlar lirikasida er, eran obrazi boshqalaridan bir qadar farqli. Masalan, Sayyid Qosimiy va Haydar Xorazmiy asarlarida mazkur obraz Yassaviy hikmatlari bilan mushtarak bo‘lsa, Xorazmiy, Sakkokiy, Yaqiniy ijodida er, eran timsoli uchramaydi. Atoiy, Gadoiy, Hofiz Xorazmiy va Lutfiy she’riyatida esa er, eran nomi faqat bir o‘rinda keltirilgani ma’lum bo‘ldi. Lutfiy g‘azalida er kishi vasl istab, dunyo molini tark qilgan oshiq qiyofasida gavdalantirilsa, Hofiz Xorazmiy lirikasida eran – tariqatda manzilga yetib, irshod maqomiga doxil bo‘lgan murshiddir. Bu ijodkorlar *“xo‘blar”, “ahli ma’ni”, “mardi ma’no”* kabi er, eran bilan ma’nodoshlik hosil qilgan timsollardan keng istifoda etishgan. Sayfi Saroyi asarlarida er, eran obrazi *“sohibdavlat”, “komil bilikli”, “sohibvaqt”, “porso”, “faqir”, “aziz”, “orif”* sifatlashlari bilan keltirilib, erlik faqatgina jismoniy quvvat bilan emas, ma’naviy uyg‘oqlik va ogohlik bilan ham belgilanishi badiiy ifodalangan. Mazkur davr adabiyotida obraz maqomini haddi a’losiga yetkazgan shoir Sayyid Qosimiy, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Uning “Haqiqatnoma” asarida eranlarga maxsus bag‘ishlov mavjud. Unda talab yo‘liga kirgan tolib har bir vodiyda erlik fazilatlariga ega bo‘lib borishi yoritilgan.

9. Alisher Navoiy lirikasida er, eng avvalo, foniy dunyo havaslaridan ko‘ngil uzgan, nafsoniy istaklariga qarshi chiqqan valiy zotdir. G‘azallarda dunyo makkor kampir, tul xotin sifatida ko‘rsatilib, erlarning dushmani va zavoli ekanligi aytiladi. Ammo bu sifatlash ayollarni kamsitish ma’nosida bo‘lmay, dahri dun makr-hiylasini yaqqol ko‘rsatish uchundir. Navoiy ijodida erning eng asosiy vazifasi el-yurtga xizmat qilish, odamlarga naf keltirishdir. Ulug‘ shoir er fidoyiligi va jo‘mardligini uning xalq malomati va jabr-sitamiga toqat qilib, yo‘lida davom etishida, deydi. Erni nomard bilan muqoyasa qilarkan, ulug‘ shoir xo‘roz va makiyon timsolidan o‘rinli foydalangan. “Lison ut-tayr” dostonida yozilishicha, xo‘roz “arshparvoz” bo‘lsa-da, yettinchi osmondagi daraxt – Sidrada makon tutsa ham, parvozini eldan sir saqlaydi. Uning ilohiy vasldan o‘zga istagi yo‘q. Bu erning muddaosiga uyg‘undir. Eran obrazi esa pir, murshid, himmat sohibi sifatida tasvirlanadi.

10. “Hayrat ul-abror” dostonida erlik yo‘lining nazariy qonun-qoidalari belgilab berilgan. Asarda erning oiladagi vazifasi, jamiyatdagi mavqeyi hamda axloqiy darajasi aniq dalillarda ko‘rsatilgan. Dostonning 16-maqolatida er va

nomard qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritilib, ularning farqi bir qancha mezonlar bilan belgilangan. Jumladan, nomard suvratparast, tamagir, maqtanchoq, manman, yolg‘onchi, “badmast” va e’tiqodsiz bo‘lsa, er botinnazar, kamtar, behojat, rostgo‘y, ahli shariat va Haq oshig‘idir. Mutafakkir shoir erni lochinga, nomardni quzg‘unga o‘xshatadi. Dostonda Abdulloh ibn Muborak haqidagi hikoyat orqali erning jasurligi va shijoati aynan nafsoniy istaklar bilan olib borgan kurashida ekanligi ta’kidlanadi. “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning tabiati va hayot tarzi erning jonli qiyofasidir. Dostonda Shirin tilidan Farhodga er va pahlavon ta’rifi beriladi. Yetuklik va Haq yo‘lining sir-sinoatlarini o‘rgatuvchi “Lison ut-tayr” dostonida er – oshiq, himmat sohibi, ahdiga vafodor, “ahli yaqin”, pok va sokin jonlar tarzida talqin qilingan.

11. “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida erning ahvol-ruhiyasi, tasavvufiy hayotdagi maqom-martabasi ko‘rsatilgan. Asarda Abu Hafs Haddod, Abulqosim Hakim Samarqandiy, Xoja Ahmad Hammod Saraxsiy, Abu Hamza Xurosoniyning er, eran haqidagi ta’riflari mavjud. Xoja Bahouddin Naqshband q.t.s., Sayyid Amir Kulol r.t., Abdulloh Muborak q.t.s., Sayyid Muhammad Madaniy q.r., Xoja Boyazid a.r., Mir G‘iyos q.r. singari valiy zotlar esa er deya ulug‘lanadi. Navoiy Shayx Abu Abdulloh Boku, Shayx Ziyouddin Rumiy q.r. va Abus-Su’ud b. Shabl r.t.larning g‘ayb eranlari nazariga tushganlari haqida ham ma’lumot beradi. Ahamiyatlisi, tazkirada erning har jabhada Kitob va sunnat mezoni bilan ish yuritishi, barcha mashg‘ullik orasida ham zikrdan aslo to‘xtamasligi va kashf-u karomat sohibi ekanligi yorqin misollar orqali ifodalanadi. Shuningdek, tariqat yo‘lboshchisi Bahouddin Naqshbandning tug‘ilishlaridan avval er deya atalishi obraz quvvatini yana-da oshiradi.

12. “Mahbub ul-qulub” dostonida hazrat Navoiyning er va eran haqidagi barcha fikrlari hayotiy xulosalari bilan mushtarak. Er, eran malomatiy va fatiydir, bu ularning o‘zgalar ranj-u azobiga sabr qilish va botinlari asosin tuzib, zohir suratiga barham berishlarida namoyon bo‘ladi. Er, eran sodiqliklari so‘z, amal va holda aks etgan siddiqdir. Er va eran – foniy, yolg‘iz istaklari Haq roziligi, taslimiyatlari tom, rizolari batamomdir. Asarda erlik, insoniylik, odamiylik sifatlashlari ma’nodoshlik hosil qiladi. Ulug‘ shoir turkiy tilning muhofizi va muhibi sifatida asl turkiy so‘z er va eranga juda ko‘p vazifa yuklaydi. Erman, deganning komil bo‘lishini istaydiki, jamiyatdagi muhim yumushlarni chin insonlar bajarsin.

13. XVI-XX asrlar adabiyotida er va eran obrazining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, asosan, Alisher Navoiy ijodi ta’sirida ifoda etildi. Xususan, So‘fi Olloyor, Boborahim Mashrab, Ogahiy singari shoirlar ijodida Navoiyga izdoshlik yaqqol sezilib turadi. XX asrga kelib esa er, eran obrazi erk, hurriyat himoyachisi, millatni istibdod zulmidan qutqaruvchi xaloskor timsoliga aylandi. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Usmon Qo‘chqor singari atoqli shoir-u adiblar ijodiyoti buning bir misolidir. Ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek adabiyotida er va eran obrazi o‘z maqomi, ma’naviy qadriyatlarini hamisha saqlab kelgan. Obrazning zamonaviy adabiyotdagi badiiy ifodasi esa alohida tadqiqot mavzusi bo‘la oladi.

SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING ACADEMIC DEGREES DSc.02/30.12. 2019. Fil.46.01 AT THE INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE, AND FOLKLORE

INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE, AND FOLKLORE

JURAKULOVA NASIBA SHAMUROVNA

IMAGE OF ER AND ERAN IN UZBEK CLASSICAL LITERATURE (11th-15th CENTURIES)

10.00.02 – Uzbek literature
(philological sciences)

DISSERTATION ABSTRACT
for the degree of doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Tashkent – 2024

The theme of Philosophy Doctor (PhD) dissertation on Philological sciences was registered at the Supreme Attestation Commission under number B2022.2.PhD/Fil2434.

The dissertation has been completed at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

The dissertation abstract was published in three languages (Uzbek, English, Russian (resumé)) on the website of the Scientific Council (www.tai.uz) and on the information and educational portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific advisor:	**Asadov Maksud Husenovich,** Doctor of Philological sciences, Professor
Official opponents:	**Jabborov Nurboy Abdulhakimovich,** Doctor of Philological sciences, Professor **Kobilov Usmon Uralovich,** Doctor of Philological sciences, Professor
Leading organization:	**Namangan state university**

The defense of dissertation will be held on «____» _____ 2024 at _____ at the session of Scientific Council DSc.02/30.12.2019.Fill.46.01 on award scientific degrees at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Uzbekistan Academy of Sciences (Address: 100060, Tashkent, Shakhrisabz street, 5. Tel: (99871) 233-36-50, fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi.@academy.uz.) The dissertation available in the Main Library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (registered by the number __). Address: 100100, Tashkent, Ziyolilar street, 13. Tel: (99871) 262-74-58. The abstract of the dissertation was distributed on «___» _____ 2024. (Register protocol on «___» _____ 2024).

B.Tukhliyev
Chairman of Scientific council
on awarding scientific degrees,
Doctor of Philological sciences, Professor

R.Barakayev
Secretary of Scientific Council on
awarding scientific degrees,
Candidate of Philological sciences, Professor

U.Hamdamov
Chairman of Scientific Seminar at Scientific
Council on awarding scientific degrees, Doctor
of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (Abstract of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In world literary studies, it is important to analyze and interpret the development of an artistic image in harmony with the moral and spiritual views, way of thinking, beliefs and values of each nation. In this sense, one of the most important tasks is to study the unique nature of a particular artistic image, its national affiliation, and research the principles of development.

In world literary studies the function of artistic images, symbols or prototypes in revealing the essence of the work has attracted attention. The character of the image, in harmony with the worldview of the author, is a literary phenomenon that allows easy understanding of the purpose of the literary text, as well as arousing aesthetic pleasure. Evaluating images that embody human qualities helps to have a detailed discussion about the essence of literature and the possibilities of artistic representation.

Investigating the genesis, stages of development and artistic uniqueness of the er and eran, which are the unique images of Uzbek classic literature, in a monographic aspect, not only in understanding the nature of the image, the content of the literary text, but also allows to know the spiritual and moral level and way of thinking of the Turkic peoples. Er, eran are original Turkic words and mean a brave, courageous, generous, diligent and honest person, and in classical literature, they mean a perfect person, a mature person. Studying the development history of Er and Eran images, their place in classical literature and many other aspects is extremely important for getting to know the past and spiritual values of the Turkic peoples, and for vividy imagining the moral image of the nation.

After all, “It is of great importance to study Uzbek classic and modern literature at the international level, to analyze it in connection with the most important processes taking place in the world literary space today, to draw the necessary scientific and practical conclusions, and to determine our future tasks” [55]. In this sense, a sufficient assessment of the essence, occurrence, development, expression method and scope of the image of er and eran in Uzbek classic literature will undoubtedly enrich our literary studies with a new perspective and analysis.

PQ-2789 dated February 17, 2017 of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of scientific research", PQ-2909 dated April 20, 2017 PQ-2995 dated May 24, 2017 "On measures to further develop the higher education system" "On measures to further improve the system of preservation, research and promotion of ancient written sources" ”, No. PQ-4865 of October 19, 2020 “On the wide celebration of the 580th anniversary of the birth of the great poet and thinker Alisher Navoi”, No. PQ-20 of January 25, 2023

[55] Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. www.xabar.uz. 07.08.2018.

“The great poet and scientist, famous state decisions on the wide celebration of the 540th anniversary of the birth of the great figure Zahiriddin Muhammad Babur, Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 124-F of February 16, 2018 "Study and promotion of Uzbek classic and modern literature at the international level This dissertation research serves to a certain extent in the implementation of the tasks specified in the decree "On holding an international conference on the topic of "urgent issues of development" and other regulatory legal documents related to this activity.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the Republic of Uzbekistan. This study was carried out in accordance with the priority direction of the republican science and technology development “Formation the system of innovative ideas and ways of implementing in social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state”.

Problem development status. Although the image of Er and Eran is of special importance in revealing the ideological and artistic characteristics of Uzbek classic literature, the unique possibilities of the art of poetic words, its status as an image, artistic skills as a poet, his unique features in discovering the spiritual world have not been the object of special research in Uzbek literary studies until now.

In world literature, the terminological meaning of the image of er and eran and the characteristics of its use in ancient Turkic literature were studied by V.Radlov, M.Seyidov, A.Inan, B.Ugel, E.Pekarsky, E.Sevortyan, while researches as F.Kupruli, S.Uludogh, A.Jabajiogli, M.Qutqu, M.Jushon, U.Turar, A.Guzal, I.Kora[56] debated about its gnostic essence.

The researches of Uzbek linguists A.Rustamov, G.Abdurahmonov, H.Dadaboyev, F.Abdujabbarova, M.Kholmuradova[57] have presented some information about the dictionary meaning, etymology, and structural order of the words er and eran.

Folklorists such as T.Mirzayev, A.Musakulov, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov[58] have touched upon on the role and importance of the image of the er, eran in the

---

[56] Радлов В. Опыт словаря тюркских наречий. Том I. – СПб.: Наука, 1893. – 1916 с.; Пекарский Э. Словарь якутского языка. Том 1 (А-К). –М., 1959. – 1282 с.; Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков (Общетюркские и межтюркские основы на гласные). – М.: Наука, 1974. – 767 с.; Köprülü A. Türk edebiyatı’nda ilk mutasavvıflar. 3. Basım. – Ankara: Türk tarih kurumu basımevi, 1976. – 470 s.; İnan A. Eski türk dini tarihi. – İstanbul: Milli eğitim basımevi, 1976. – 280 s.; Сеҗидов М. Азэрбајчан мифик тэфэккурунун гајнаглары. – Баку: Јазычы, 1983. – 326 s.; Uludağ S. Tasavvuf terımlerı sözlügü. – İstanbul: Marifet yayınları, 1995. – 604 s.; Cebecioğlu E. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. – Ankara: Rahber yayınları, 1997. – 741 s.; Ögel B. Türk kültür tarihine giriş VI. Turklerde tuğ ve bayrak. – Ankara, 2000. – 486 s.; Жўъшон М. Юнус Эмро ва тасаввуф. – Тошкент: Фан, 2001. – 144 б.; Güzel A. Hoca Ahmed Yesevi Fakr-name. – Ankara, 2017. – 472 s.; шу муаллиф. Dını tasavvufı türk edebiyatı el kitabı. 9. Baskı: Ankara, 2021. – 1044 s.

[57] Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 164 б.; Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 247 б.; Абдужаббарова Ф. “Қутадғу билиг”даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика. Филол.фан.номз....дисс. –Тошкент, 2011. – 162 б.; Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит турк”да эркак жинсини ифодаловчи лексемалар. Лингвист V: илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Академнашр, 2014. – 264 б.; Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол.фан.б-ча.фалсафа д-ри (PhD)...дисс. –Тошкент, 2019. – 141 б.

[58] Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Тошкент: Баёз, 2004. – 115 б.; Раҳмонов Н. Турк хоқонлиги. – Тошкент, 1993. – 144 б.; шу муаллиф., Содиқов Қ. Ўзбек тили тарихи. – Тошкент:

samples of folk art in different way. B.Tukhliyev, N.Rahmonov and A.Abdurakhmanov[59] have given their conclusions about the main features and forms of use of the image in ancient Turkic literature.

There are some opinions about the symbolic-figurative nature of the image, the scope of mystical meaning in the articles and monographs by literary critics such as N.Komilov, I.Hakkul, A.Gozal, N.Jabborov, M.Asadov, S.Sayfullah, E.Ochilov, B.Rajabova, G.Khojanova, Z.Rahmonova, H.Latipov, R.Saidova[60]. Among them, Professor I.Hakkul's researches are noteworthy, in particular, because they provide characteristic information about the position of the image of er and eran in Alisher Navoi's lyrics.

Literary experts such as S.Meliyev and U.Hamdamov[61] have made some comments about the interpretation of the image of er and eran in modern Uzbek literature.

